



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **DINIY NUTQIY JANRLARNING O‘ZIGA XOS GRAMMATIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Azimov Akbarjon Niyozidin o‘g‘li**  
Andijon davlat pedagogika instituti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada diniy diskurs tarkibida shakllanuvchi diniy nutqiy janrlarning o‘ziga xos grammatik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda diniy nutqiy janrlarning til birliklari, sintaktik tuzilishi, leksik-semantik xususiyatlari hamda kommunikativ-pragmatik vazifalari yoritiladi. Shuningdek, diniy nutqda qo‘llaniladigan buyruq, undov, so‘roq va ritorik gaplarning faol ishlatilishi, arabcha va diniy terminlarning keng qo‘llanishi, takror, parallelizm, ibora va barqaror birikmalar kabi uslubiy vositalarning nutq ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Maqolada duo, va’z, xutba, tafsir va fatvo kabi diniy nutqiy janrlarning grammatik tuzilishi hamda uslubiy xususiyatlari misollar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari diniy diskursni lingvistik jihatdan o‘rganishda hamda diniy nutqiy janrlarning til tizimidagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** diniy diskurs, diniy nutqiy janr, grammatik xususiyat, uslubiy xususiyat, duo, va’z, xutba, tafsir, fatvo, sintaktik qurilish, leksik birliklar, ritorik so‘roq gaplar.

## **РЕЛИГИОЗНЫЕ РЕЧЕВЫЕ ЖАНРЫ: ИХ СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ И СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ**

**Азимов Акбаржон Ниёзидин угли**  
Андижанский государственный педагогический институт

### **Аннотация**

В данной статье анализируются специфические грамматические и стилистические особенности религиозных речевых жанров, формирующихся в структуре религиозного дискурса. В исследовании освещаются языковые единицы религиозных речевых жанров, их синтаксическая структура, лексико-семантические особенности, а также коммуникативно-прагматические функции. Кроме того, рассматривается активное использование в религиозной речи повелительных, восклицательных, вопросительных и риторических предложений, широкое употребление арабских и религиозных терминов, а также роль таких стилистических средств, как повтор, параллелизм, фразеологические выражения и устойчивые словосочетания в усилении выразительности речи. В статье на основе примеров анализируются грамматическая структура и стилистические особенности таких религиозных речевых жанров, как молитва (дуо), проповедь (ва’з), хутба, тафсир и фетва. Результаты исследования имеют важное значение для лингвистического изучения религиозного дискурса и определения места религиозных речевых жанров в системе языка.

**Ключевые слова:** религиозный дискурс, религиозный речевой жанр, грамматические особенности, стилистические особенности, молитва, проповедь, хутба, тафсир, фетва, синтаксическая структура, лексические единицы, риторические вопросительные предложения.

## **SPECIFIC GRAMMATICAL AND STYLISTIC FEATURES OF RELIGIOUS SPEECH GENRES**

**Azimov Akbarjon Niyozidin ogli**  
Andijan State Pedagogical Institute

### **Abstract**

This article analyzes the specific grammatical and stylistic features of religious speech genres that emerge within the framework of religious discourse. The study examines the linguistic units of religious speech genres, their syntactic structure, lexical-semantic characteristics, and communicative-pragmatic functions. It also discusses the active use of imperative, exclamatory, interrogative, and rhetorical sentences in religious speech, the wide usage of Arabic and religious terminology, and the role of stylistic devices such as repetition, parallelism, idiomatic expressions, and stable word combinations in enhancing the expressiveness of speech. The article analyzes, based on examples, the grammatical structure and stylistic characteristics of religious speech genres such as prayer, sermon, khutbah, tafsir, and fatwa. The results of the research are important for the linguistic study of religious discourse and for determining the place of religious speech genres within the language system.

**Keywords:** religious discourse, religious speech genre, grammatical features, stylistic features, prayer, sermon, khutbah, tafsir, fatwa, syntactic structure, lexical units, rhetorical questions.

Diniy diskurs insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti davomida shakllangan eng qadimiy, barqaror va ko‘p qatlamli kommunikativ tizimlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. U faqat lingvistik hodisa emas, balki jamiyatning ma‘naviy-axloqiy, madaniy, tarixiy va ijtimoiy ongini o‘zida mujassam etuvchi murakkab semiotik makon sifatida ham namoyon bo‘ladi. Diniy diskursning asosiy vazifasi inson va ilohiylik o‘rtasidagi munosabatni til vositasida ifodalash, e‘tiqodiy qarashlarni shakllantirish, diniy bilimlarni avloddan avlodga uzatish hamda jamiyat a‘zolarining axloqiy-me‘yoriy xulq-atvorini tartibga solishdan iboratdir. Shu jihatdan diniy diskursni nafaqat kommunikativ jarayon, balki ijtimoiy ongni boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi ideologik tizim sifatida ham talqin qilish mumkin [1].

Lingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, diniy diskurs o‘ziga xos funksional-uslubiy tizimga ega bo‘lib, unda til birliklari maxsus semantik yuklama va pragmatik maqsad kasb etadi. Bu diskurs doirasida qo‘llaniladigan til vositalari odatiy kundalik nutqdan farqli ravishda yuqori darajadagi stilistik ifodalilik, ramziylik hamda ko‘p qatlamli ma‘no strukturasi ega bo‘ladi. Diniy matnlar va og‘zaki nutq namunalarida metaforik tafakkur, allegorik ifoda, timsoliy obrazlar va ramziy konstruksiyalarning keng qo‘llanilishi kuzatiladi. Bu esa diniy diskursni lingvistik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Diniy diskursning shakllanishi va rivojlanishi bevosita insoniyatning diniy e‘tiqodlari evolyutsiyasi bilan bog‘liqdir. Tarixiy jarayonda turli dinlar va diniy ta‘limotlar o‘ziga xos kommunikativ an‘analarni shakllantirgan bo‘lib, bu an‘analar muayyan nutqiy janrlar tizimini yuzaga keltirgan. Ushbu janrlar diniy diskursning strukturaviy asosini tashkil etadi va har biri o‘zining funksional vazifasi, stilistik xususiyati hamda kommunikativ maqsadiga ega. Diniy nutqiy janrlar sirasiga duo, va‘z, xutba, tafsir, fatvo, qiroat, zikr va boshqa ko‘plab shakllar kiradi. Har bir janr o‘zining ichki lingvistik qonuniyatlari va pragmatik yo‘nalishiga ega bo‘lib, ular diniy kommunikatsiyaning turli aspektlarini amalga oshiradi [2]. Masalan, duo janri insonning Yaratganga murojaati sifatida individual va intim kommunikativ akti ifodalaydi. Unda til vositalari ko‘proq hissiy-ekspressiv xarakterga ega bo‘lib, iltijo, umid, minnatdorlik kabi psixologik holatlar ifodalanadi. Va‘z va xutba janrlari esa ko‘proq jamoaviy kommunikatsiyaga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular orqali diniy bilimlar targ‘ib qilinadi, axloqiy qadriyatlar mustahkamlanadi hamda ijtimoiy ongga ta‘sir ko‘rsatiladi. Tafsir janri diniy matnlarning ilmiy sharhi sifatida murakkab germeneytik jarayonni o‘z ichiga oladi va unda tilning analitik imkoniyatlari keng qo‘llaniladi. Fatvo esa diniy-huquqiy qaror sifatida normativ diskurs elementlarini o‘zida mujassam etadi [3]. Diniy diskursning muhim xususiyatlaridan biri uning intertekstual tabiatidir. Ya‘ni diniy matnlar va nutqlar doimo muqaddas manbalar, avvalgi diniy matnlar hamda sharhlovchi an‘analar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bu holat diniy diskursning tarixiy davomiyligini va barqarorligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, diniy diskursda avtoritetlik kategoriyasi ham muhim o‘rin tutadi. Muqaddas matnlar, payg‘ambarlar so‘zlari va

diniy ulamolar talqinlari yuqori lingvistik hamda ijtimoiy nufuzga ega bo'lib, ular kommunikativ jarayonda normativ asos vazifasini bajaradi. Pragmatik jihatdan diniy diskurs ko'p funksiyali tizim hisoblanadi. U faqat axborot uzatish bilan cheklanib qolmay, balki tinglovchi yoki o'quvchining emotsional holatiga ta'sir qilish, uning e'tiqodini mustahkamlash hamda xulq-atvorini yo'naltirish kabi vazifalarni ham bajaradi. Shu sababli diniy diskursda illokutiv va perlokutiv kuch juda yuqori bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi ko'pincha ritorik usullar, takrorlar, parallel konstruksiyalar hamda ritmik ifoda orqali kuchaytiriladi. Diniy diskursni o'rganish zamonaviy lingvistika, pragmatika, diskurs tahlili, sotsiolingvistika va kognitiv lingvistika kabi sohalar uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki u til va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqani ochib berishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, diniy diskurs orqali jamiyatning mental modeli, qadriyatlar tizimi va kollektiv ong strukturasi tahlil qilinadi [4]. Shu nuqtayi nazardan, diniy diskursni kompleks lingvistik hodisa sifatida o'rganish uning nafaqat til tizimidagi o'rnini, balki ijtimoiy-madaniy funksiyalarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Diniy nutqiy janrlar esa ushbu diskursning amaliy ko'rinishi sifatida tilning funksional imkoniyatlarini, semantik boyligini hamda kommunikativ qudratini namoyon etuvchi asosiy birliklar hisoblanadi. Natijada, diniy diskursni ilmiy tadqiq etish tilshunoslikning nazariy va amaliy yo'nalishlarini boyitish bilan birga, insoniyat ma'naviy taraqqiyotini anglashda ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Diniy nutqiy janrlarning lingvistik tabiati, avvalo, ularning grammatik va uslubiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Har bir nutqiy janr muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qilganligi sababli unda qo'llaniladigan grammatik shakllar ham shu maqsadga muvofiq tarzda tanlanadi. Diniy nutqda gaplarning tuzilishi, grammatik kategoriyalarning qo'llanishi, sintaktik konstruksiyalar hamda morfologik shakllarning tanlanishi diniy nutqning mazmuniy va funksional xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, buyruq mayli shakllari, undov gaplar, ritorik so'roq gaplar hamda murakkab sintaktik konstruksiyalar diniy nutqiy janrlar grammatikasining muhim elementlari sifatida namoyon bo'ladi [5].

Diniy nutqiy janrlarda buyruq mayli shakllarining faol qo'llanishi diniy nutqning didaktik va targ'ibot xarakteri bilan izohlanadi. Ma'lumki, diniy nutqning asosiy maqsadi insonni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, uni ezgulik va adolatga undash, gunoh va yomonlikdan qaytarishdan iboratdir. Shu sababli va'z va xutba kabi janrlarda tinglovchini muayyan xatti-harakatga chorlovchi grammatik shakllar keng ishlatiladi. Masalan, "Allohdan qo'rqing", "Yaxshilik qiling", "Gunohdan saqlaning", "Halol yo'ldan yuring" kabi buyruq maylidagi gaplar diniy nutqning asosiy semantik yo'nalishini ifodalaydi. Bunday grammatik birliklar tinglovchiga bevosita ta'sir ko'rsatish, uni ma'naviy jihatdan faol pozitsiyaga undash vazifasini bajaradi [6].

Duo janrida esa grammatik qurilish o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu janrda iltijo, tilak va murojaat ma'nosini ifodalovchi grammatik konstruksiyalar ustunlik qiladi. Duo nutqida ko'pincha Allohga bevosita murojaat qilish orqali iltijo mazmuni ifodalanadi. Masalan, "Allohim, bizni to'g'ri yo'ldan adashtirma", "Rabbim, gunohlarimizni mag'firat qil", "Parvardigor, bizga sabr va hidoyat ato et" kabi gaplar diniy nutqdagi iltijo shakllarining faol qo'llanishini ko'rsatadi. Bunday sintaktik konstruksiyalar diniy nutqning emotsional-ekspressiv xususiyatini kuchaytiradi hamda insonning ilohiy kuchga bo'lgan ishonchi va umidini ifodalaydi.

Diniy nutqiy janrlarning yana bir muhim grammatik xususiyati so'roq gaplarning, xususan, ritorik so'roq gaplarning keng qo'llanishidir. Ritorik so'roq gaplar diniy nutqda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular ko'pincha javob talab qilmaydi, balki tinglovchini fikrlashga undash, muayyan haqiqatni chuqur anglashga yo'naltirish vazifasini bajaradi. Masalan, "Biladiganlar bilan bilmaydiganlar barobar bo'ladimi?", "Alloh yaratgan ne'matlarni qanday inkor etish mumkin?", "Inson nega o'z Yaratuvchisini unutadi?" kabi ritorik savollar tinglovchining tafakkurini faollashtirish hamda nutqning mantiqiy va emotsional ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday sintaktik konstruksiyalar diniy nutqning ta'sirchanligini oshirib, tinglovchi ongida muayyan fikrni mustahkamlashga yordam beradi.

Diniy nutqiy janrlarning grammatik qurilishida murakkab gaplarning faol qo'llanishi

ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, sabab, shart va maqsad munosabatlarini ifodalovchi ergash gapli qo‘shma gaplar diniy matnlarda keng uchraydi. Bu holat diniy nutqning mantiqiy izchilligini ta‘minlaydi hamda diniy g‘oyalarning sabab-natija munosabatlari orqali izohlanishiga imkon yaratadi. Masalan, “Agar inson Allohga tavakkal qilsa, u albatta najot topadi”, “Kim yaxshilik qilsa, uning mukofoti Alloh huzurida bordir”, “Agar banda tavba qilsa, Alloh uning gunohlarini mag‘firat qiladi” kabi gaplar diniy nutqning mantiqiy tuzilishini ko‘rsatadi. Diniy nutqiy janrlarning uslubiy xususiyatlari ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Avvalo, diniy nutqda leksik birliklarning tanlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Diniy diskursda arab tilidan kirib kelgan diniy terminlar, Qur‘oniy iboralar hamda diniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar keng qo‘llanadi. *Taqvo, savob, gunoh, ibodat, tavba, hidoyat, mag‘firat, sabr, shukr* kabi leksik birliklar diniy nutqning semantik asosini tashkil etadi. Ushbu birliklar diniy diskursning konseptual maydonini shakllantiradi hamda diniy nutqning mazmuniy yo‘nalishini belgilaydi.

Diniy nutqning uslubiy qurilishida takror, parallelizm, mubolag‘a, obrazli ifodalar ham muhim rol o‘ynaydi. Takror usuli nutqning ta‘sirchanligini oshirish, muhim g‘oyani tinglovchi ongida mustahkamlash hamda nutqqa ritmik ohang bag‘ishlash vazifasini bajaradi. Masalan, va‘z matnlarida “Allohni zikr qiling, Allohni unutmang, Allohni doimo yodda tuting” kabi takroriy konstruksiyalar tez-tez uchraydi. Bunday uslubiy vositalar nutqning emotsional kuchini oshiradi hamda tinglovchining diqqatini muhim fikrga qaratadi. Parallel sintaktik konstruksiyalar ham diniy nutqning uslubiy jihatdan boy va ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlaydi. Parallelizm orqali nutqda ritm va ohang paydo bo‘ladi, bu esa ayniqsa va‘z va xutba kabi og‘zaki nutq janrlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Parallel qurilmalar orqali diniy nutq o‘ziga xos ritmik va ohangdor tus oladi.

Diniy nutqiy janrlarning yana bir muhim uslubiy belgisi emotsional-ekspressiv vositalarning keng qo‘llanishidir. Undov birliklar, murojaat shakllari hamda emotsional ifodalar diniy nutqning ta‘sir kuchini oshiradi. Masalan, “Ey mo‘minlar!”, “Ey insonlar!”, “Ey iymon keltirganlar!” kabi murojaat shakllari tinglovchilar e‘tiborini jalb qilishga xizmat qiladi. Bunday birliklar diniy nutqning kommunikativ samaradorligini oshirib, nutqning auditoriyaga bevosita ta‘sirini kuchaytiradi. Shuningdek, diniy nutqiy janrlar intertekstual xususiyatga ham ega bo‘lib, ular ko‘pincha muqaddas matnlar — Qur‘oni karim oyatlari, hadislar hamda diniy manbalarga tayanadi. Bunday intertekstual birliklar diniy nutqning ishonchliligi va dalillilik darajasini oshiradi hamda uning semantik boyligini ta‘minlaydi. Umuman olganda, diniy nutqiy janrlarning grammatik va uslubiy xususiyatlari ularning kommunikativ vazifasi bilan uzviy bog‘liqdir. Diniy nutq insonni ma‘naviy jihatdan tarbiyalash, diniy qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda jamiyatda axloqiy me‘yorlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, diniy nutqiy janrlar o‘zining grammatik va uslubiy xususiyatlari bilan boshqa nutqiy janrlardan sezilarli darajada farq qiladi. Buyruq va iltijo shakllarining keng qo‘llanishi, ritorik so‘roq gaplarning faol ishlatilishi, murakkab sintaktik konstruksiyalarning mavjudligi diniy nutqning grammatik o‘ziga xosligini tashkil etadi. Shuningdek, diniy terminlarning keng qo‘llanishi, takror, parallelizm hamda emotsional-ekspressiv vositalarning faol ishlatilishi diniy nutqning uslubiy xususiyatlarini belgilaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Бахтин М. М. Проблема речевых жанров // Литературно-критические статьи. — М.: Художественная литература, 1986. — С. 428–472.
2. Yusupova Sh. T. Diniy matnlarning lingvopragmatik xususiyatlari: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Farg‘ona, 2020. — B. 154.
3. Nurmanova D. A. Neutralization of consonant opposition in anlaut of the Uzbek language // 2021.
4. Azimov A. N. O‘zbek tilida diniy nutqiy janrlar tasnifi // Scientific Journal of Higher Education and Creative Innovations (Ajou Sci.). — 2025. — № 1. — B. 50–53.
5. Azimov A. N. Duo nutqiy janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari // Hamkor konferensiyalar. — 2025. — Vol. 1, No. 15. — B. 131–133.